



SUV RESUSRLARIDAN FOYDALANISH QOIDALARINI HUQUQIY TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Xurramov E'zozbek Baxron o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti A'trof muhit huquqi
va barqaror rivojlanish fakulteti magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10213336>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-November 2023 yil
Ma'qullandi: 24- November 2023 yil
Nashr qilindi: 28-November 2023 yil

KEY WORDS

*suvdan foydalanish, qishloq
xo'jaligi, qurg'oqchilik,
qonunchilik, barqaror rivojlanish
strategiyasi*

ABSTRACT

*Maqola suv resurslaridan foydalanish qoidalarini
huquqiy takomillashtirish, mavjud qonun hujjatlarini
bugungi zamon talablariga moslashtirish bilan birga
suvdan foydalanishning barcha turlarini huquqiy
jihatdan tartibga solishning o'ziga xos jihatlarini
yoritishga bag'ishlangan.*

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda suv resurslaridan foydalanishni takomillashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Chunki bugungi kunda deyarli barcha davlatlarda suv resurslari kamayib ketayotganligi fonida mamlakatimizda ham ushbu sohani takomillashtirish choralari ko'rilmogda. Ammo ayni vaqtda mamlakatimizdagi sug'oriladigan yerlarning katta qismi suvni tejash texnikasiga asoslanmagan. Ya'ni ushbu yerlarni sug'orishda suvni keragidan ko'proq sarflash holatlari mavjud. Shuni inobatga olgan holda tomchilatib sug'orish amaliyoti joriy etilayotganiga qaramasdan hamma hududda ushbu amaliyot amalda qo'llangani yo'q. Shuningdek, ichimlik suvlaridan ham foydalanish tartibi ham takomillashtirishga muhtoj. Ayniqsa yer osti suvlaridan foydalanish tartibini takomillashtirish muhim masala bo'lib turibdi

O'zbekiston Respublikasida suv resurslaridan foydalanish tartibi amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan bo'lib, ushbu qonunchilikda suvdan foydalanishning umumiy asoslari, suvni tegash, tomchilatib sug'orish tartib taomili va boshqa shunga o'xshash dolzarb masalalar huquqiy tartibga solingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli farmonining 31-maqsadida "Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish" belgilan qo'yilgan. Ushbu maqsadning belgilanishi oqibatida O'zbekistonda suv resurslaridan foydalanishning butunlay yangi tartibi joriy qilish masalasi ko'rilmogda va bu suv bilan bog'liq qonunchilikning ham isloh qilinishini talab qiladi. Ammo ushbu holat aynan suv resurslaridan foydalanishning yangi tartib-taomilini ya'ni bugungi dunyoga mos, global isish, qurg'oqchilik va boshqa sharoitlarga mos qonunchilik tizimini ishlab chiqish imkonini beradi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda iste'mol qilingan 39 mlrd kub metr suvning 36 foizi tuproq o'zanli kanal va ariqlarda yo'qolganligi, Yerlarning 70 foizi eski usulda sug'orilgani bois 5-6 mlrd metr kub suv behuda sarflanib, kollektorlarga tashlanganligi, Hozirda 2,5 mln gektar maydonni sug'orish uchun 5 mingdan ortiq nasos ishlatiladi. Ular yiliga 7 mlrd kWh elektr sarflaydi. Ularning 80 foizidan 35-40 yildan beri ishlatiladi va o'z resursini o'tab bo'lganligi olib borilgan o'rganishlar natijasida aniqlangan, Ushbu holatda suvning ortiqcha sarflanishi oshib ketishi, buning natijasida suv zaxiralarning kamayib ketish va oxir-oqibat suv tanqisligiga olib kelishi mumkin. Bunga yaqqol misol tariqasida Yevroosiyo taraqqiyot bankining "2028-2029 yillarda Markaziy Osiyo suv tanqisligiga duchor bo'ladi" deya bergan prognozidan ham ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 06.05.1993-yildagi 837-XII-sonli qonunida suv resurslari va ularning turlariga quyidagicha tarif berilgan:

Suv resurslari - foydalaniladigan yoki foydalanilishi lozim bo'lgan suv obyektlari suvlari¹ hisoblanib, ikki turga bo'linadi:

- **yer osti suvlari** — yer sathidan pastda yer qobig'ining tog' jinslari qatlamlarida joylashgan suvlar;
- **er usti suvlari** — yer qobig'ining ustida joylashgan suvlar.

Ushbu o'rinda suv obyektlariga ham aniqlik kiritib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqorida tilga olingan qonunda suv obyektlariga quyidagicha ta'rif berilgan: **Suv obyekti** — suvlar doimiy ravishda yoki vaqtincha to'planadigan va suv rejimining o'ziga xos shakllari va belgilari bo'lgan tabiiy (jilg'alar, soylar, daryolar va boshqalar) hamda sun'iy (ochiq va yopiq kanallar, shuningdek kollektor-drenaj tarmoqlari) suv oqimlari, tabiiy (ko'llar, dengizlar, yer osti suvli qatlamlari) va sun'iy (suv omborlari, sel suvlari to'planadigan joylar, hovuzlar va boshqalar) suv havzalari, shuningdek buloqlar va boshqa obyektlardir².

Suvdan foydalanuvchilar - Suv xo'jaligining foydalanuvchi tashkilotlari, suv iste'molchilari uyushmalari, kommunal-maishiy soha, gidroenergetika korxonalar, boshqa korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar suvdan foydalanuvchilar bo'lishi mumkin. Ushbu foydalanuvchilar tomonidan suv resurslari turli maqsadlarda iste'mol qilinadi. Suv iste'molchilari - Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer va dehqon xo'jaliklari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar suv iste'molchilari bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda ushbu qonun hujjati qabul qilinganiga ko'p vaqt bo'lgan bo'sada uni zamon talablarida mos ravishda doimiy takomillashtirilib borilishi natijasida uning ahamiyati ancha yuqori hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, hozirgi ekologik vaziyatdan kelib chiqqan holda faqatgina ushbu qonun hujjat bilan cheklanib qolib bo'lmaydi. Suvdan foydalanishning tartib-qoidalarini zamon talablariga va ekologik vaziyatga moslashtirish, iloji boricha suv resurslarini iqtisod qilish, ko'proq vaqtga yetkazish masalalaridan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirib borishni talab qilinadi.

¹ O'zbekiston Respublikasining 06.05.1993-yildagi 837-XII-sonli Qonuni

² O'zbekiston Respublikasining 06.05.1993-yildagi 837-XII-sonli Qonuni

Bugungi kunda suvdan foydalanish suv obyektidan suv olish usuliga, suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etilishiga qarab suvdan foydalanish suvdan umumiy va maxsus foydalanishga bo'linadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etuvchi maxsus inshootlar va qurilmalarni qo'llamagan holda o'z ehtiyojlarini hamda boshqa ehtiyojlarni qondirish maqsadida suvdan foydalanish suvdan umumiy foydalanishdir.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etuvchi maxsus inshootlar va qurilmalarni qo'llagan holda amalga oshiriladigan suvdan foydalanish suvdan maxsus foydalanishdir. Suvdan maxsus foydalanishga ayrim hollarda maxsus inshootlar va qurilmalarni qo'llamagan holda, ammo suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etadigan suvdan foydalanish ham kiritilishi mumkin.³

Yuqoridagilardan kelib chiqib suv iste'moli ham bir necha turlarga bo'linadi.

Maqsadli foydalanilishiga ko'ra suv iste'moli ichimlik, kommunal-maishiy, davolash, kurort, rekreatsiya, baliqchilik xo'jaligi, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi suv iste'moliga va boshqa turlarga bo'linadi. Suv obyektidan olinadigan suvning miqdoriga qarab suv iste'moli umumiy va maxsus suv iste'moliga bo'linadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etuvchi maxsus inshootlar va qurilmalarni qo'llamagan holda o'z shaxsiy ichimlik, maishiy, rekreatsiya, davolash ehtiyojlari, hayvonlarni sug'orish va boshqa ehtiyojlarni qondirish maqsadidagi suv iste'moli umumiy suv iste'molidir.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etuvchi maxsus inshootlar va qurilmalarni qo'llagan holda amalga oshiriladigan suv iste'moli maxsus suv iste'molidir. Maxsus suv iste'moliga ayrim hollarda maxsus inshootlar va qurilmalarni qo'llamagan holda, ammo suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etadigan suv iste'moli ham kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 06.05.1993-yildagi 837-XII-sonli Qonunining 35-moddasida Suvdan foydalanuvchilarning majburiyatlari keltirilgan bo'lib, unga ko'ra suvdan foydalanuvchilar suv obyektlaridan oqilona foydalanishi, suvni tejab sarflash, suvlarning sifatini tiklash va yaxshilash to'g'risida g'amxo'rlik qilishi, shuningdek, belgilangan suv olish limitlariga va suvdan foydalanish qoidalariga rioya etishi belgilan qo'yilgan. Bundan kelib chiqadiki, har bir suvdan foydalanuvchi suvni tejashi va uning holatini yaxshilashga o'z hissasini qo'shishlari lozim ekan. Ushbu norma ayni bugungi kunda muhim bo'lib, suvni behuda isrof qilinishini oldini olishga qaratilgan. Bu esa o'z navbatida suvning iqtisod qilinishi va oqilona foydalanilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi asosan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanganligi, ushbu qishloq xo'jaliklariga, fermerliklar uchun suvning naqadar zarur ekanligini ko'rsatadi. Lekin yuqorida aytib o'tilganidek, dehqonchilik va boshqa qishloq xo'jaligi faoliyatida suvdan foydalanishda zamonaviy texnologiyalarning joriy etilmaganligi, suvni tejash bilan bog'liq innovatsion metodlarning ishlab chiqilmaganligi bois suvning katta qismi yev qariga singib ketishi va buning oqibatida ortiqcha suv sarfini keltirib chiqaradi. Buning oldini olish uchun zamonaviy suv qurilmalarini joriy etish, shuningdek, suvni to'g'ri taqsimlash, kerakli joyga hech qanday

³ O'zbekiston Respublikasining 06.05.1993-yildagi 837-XII-sonli Qonuni

yo'qotishlarisiz yetkazib borish, suvdan keraklicha foydalanish va ortiqcha isrof bo'lishini oldini olish masalalari artoflicha ko'rib chiqilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli farmoni;
2. O'zbekiston Respublikasining 06.05.1993-yildagi 837-XII-sonli "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni;
3. Кутлимуродов У.М. Некоторые аспекты экологических проблем, связанные с автомобильными транспортом //European Scientific Conference.-2020.-с. 50-52.
4. Askarova, S. M. (2023). A BRIEF OVERVIEW OF THE DEVELOPMENT OF THE LEXICAL-CONCEPTUAL FIELD OF ETHICS IN THE XVIIth-XVIIIth CENTURIES. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 3(26), 25-31.
5. Кутлимуродов У.М. Загрязнение атмосферы вредными веществами и мероприятия по его сокращению //Экология: вчера, сегодня, завтра.-2019.-с.249-252.
6. Султонов А.О. Методы рационального использования пустоты в орошении сельскохозяйственных культур //Современная экономика: Актуальные вопросы, достижения и.-2019.-с. 207-209.
7. Султонов А.О. Применения информационных систем по использованию водных ресурсов в Узбекистане //Научные исследования-основа современной инновационной системы. Международной научно-практической конференции Стерлитамак. -2019. -с. 141-144.
8. Statistik ma'lumotlar;
9. Boshqa internet manbalari.
10. Younas, Ammar, Recent Policies, Regulations and Laws Related to Artificial Intelligence Across the Central Asia (August 1, 2020). Ai Mo Innovation Consultants, 2020, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3664983>
11. Younas, Ammar. "Sustaining Innovative Economy in Fourth Industrial Revolution: A Whitepaper of Uzbek Centered Artificial Intelligence Policy (February 01, 2020)." Available at SSRN 3533410.
12. Younas, Ammar, and Kinza Fatima. "REGULATING NANOTECHNOLOGY TRANSFER IN DIGITALIZED CENTRAL ASIA." DEVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR (2021): 744-746.
13. Younas, Ammar, et al. "Overview of big data and cloud computing laws, regulations and policies in central Asia." Regulations and Policies in Central Asia (August 12, 2020) (2020).
14. Younas, Ammar. "Finding a consensus between philosophy of applied and social sciences: A case of biology of human rights." JournalNX A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. ISSN 2581-4230 (2020): 62-75.
15. Younas, A. "Legality of Rule of Law with Chinese Characteristics: A Case of "Ultra-Sinoism". Russian Law Journal. 2020; 8 (4): 53-91."
16. Younas, Ammar. "The Rise of 5G in Central Asia: Latest News and Updates about the Next Generation Network." AI Mo Innovation Consultants (Smc-Pvt) Ltd (2020).
17. Younas, Ammar. "Responsible AI: Introduction of "Nomadic AI Principles" for Central Asia." (2020).

18. Ammar, Younas. "Subjects, objects and forms of land ownership in Kyrgyzstan: challenges and prospective." International Journal of Innovative Technologies in Economy 2 (8) (2017): 19-21.



INNOVATIVE
ACADEMY